



ALISHER NAVOIYNING "XAZOYIN UL -MAONIY" ASARIDA TUYUQLAR SHARHI

Uzoqova O'g'ilkerak Shokir qizi

Qarshi davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotasiya: *Bu maqolada sof turkiy janrlardan biri bo'lgan tuyuq janrining mumtoz adabiyoti hamda Alisher Navoiy ijodida muhim ahamiyat kasb etgani va tuyuq turlari. Ularda ifodalangan ma'nolar, tajnis haqida berilgan fikrlar.*

Kalit so'zlar: *tuyuq, tajnis, Alisher Navoiy, Xazoyin ul -maoniy, tajnisli tuyuq, tajnissiz tuyuq.*

Abstract: *This article describes the genre of tuyuk, one of the purely Turkic genres, which occupies an important place in classical literature and the work of Alisher Navoiy. It describes the types of tuyuk, the meanings and relationships expressed in tuyuk, and this genre.*

Keywords: *tuyuk, tajnis, Alisher Navoiy, Xazoyin ul -maoniy, tuyuk without tajnis, tuyuk with tajnis.*

Аннотация: *В данной статье жанр туюк который является одним из чисто турейских жанров, занимает важное место в классической литературе и творчестве Алишер Навои а также определяются виды туюка, смыслы, выраженные в туюка и этом жанре.*

Ключевые слова: *туюк, таджинис, Алишер Навоий, Хазоин ул маони, туюк без таджинса, туюк таджисом.*

Mumtoz she'riyatda shunday janrlar borki, she'riy san'atlarni ustamonlik bilan ishlatish natijasida hosil bo'ladi. Bu esa asarning jozibaliligini hamda shoirning so'z qo'llash san'atini qanchalik yuqorili ekanligini ko'rsati beradi. Shunday she'riy janrlardan biri tuyuqdir. Bu she'riy janr tajnis san'atini baland cho'qqiga olib chiqdi. Mumtoz adabiyotda Lutfiy, Navoiy, Ogahiy, Bobur, Munis ijodida tuyuqning yetuk namunalarini ko'rishimiz mumkun.



Tuyuq sof turkiy janr bo'lib, turkiy she'riyatda qalam tebratgan ijodkorlardan biri Alisher Navoiy ham bu janrni chetlab o'tmadi.

Navoiy tuyuq va uning xususiyatlari bilan ham shug'ullangan va shu janr uchun xos bo'lgan belgilarni ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lgan. Navoiy fikrlaridan shuni anglash mumkinki, tuyuq turkiy xalqlar orasida keng tarqalib, to'y, bazm, yig'inlarda yaratilgan ekan. Tuyuq ikki bayt, ya'ni to'rt misradan iborat bo'ladi. Tuyuq tajnisli qofiyaga asoslangan va albatta ramali musaddasi maqsur vaznida yoziladi. Shoir o'zining yutuqlarini jamlab, "Badoye ul-vasat" devoni tarkibiga kiritgan. Devondagi tuyuqlarning jami soni 13 tadir. Alisher Navoiy faqat shu devondagina emas boshqa asarlarida ham tuyuq janri haqida to'xtalib o'tgan. Masalan, "Majolis un-nafois"da ham tuyuq namunalari va mualliflari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tuyuqlarni ularda tajnisning ishtirok etishi yoki etmasligiga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. tajnisli tuyuq ;

2. tajnissiz tuyuq;

Bular hajmi, vazni jihatidan bir xildir. Tajnisli tuyuqlar o'zbek adabiyotida keng tarqalgan va rivojlangani a,a,b,a tarzida qofiyalanib, 1,2,4 misralarda tuyuqlar ishlatilgan tuyuqlardir. O'zbek shoirlari, asosan, tuyuqning shu turida asar yaratganlar. Navoiyning tajnissiz yozilgan tuyuqlari umuman yo'qdir. Tajnisli tuyuqning ikkinchi bir turida ham to'rttala misrada hamjins, ham shakl so'zlar qofiya o'rnida keladi, bu so'zlar kamida to'rt xil ma'noni anglatishi mumkin, lekin adabiyot tarixida uning namunalari kam uchraydi.

Tuyuq haqidagi nazariy ma'lumotlardan ma'lumki, badiiy asarda tajnis hosil qilish uchun faqat tildagi tayyor shakldosh (omonim) foydalanish shart emas. Ijodkorlar bir necha so'z qo'shilmasi orqali ham ilgari qo'llanilmagan, ya'ni tamoman yangi tajnislar yaratish mumkin. Masalan:

" Charx tortib xanjari hijron bu tun

Qo'ymadi bir zarra bag'rimni butun

Tunga borib bizni behol aylading

Ne balolig' yer emish, yo rab bu tun"(4:731)



Bu tuyuqda ham Navoiy shunday yo‘l tutgani 1-misradagi "bu tun"so‘zlar tarkibli, 2- misrada "butun" va 4- misrada "bu tun " degan so‘zlar tarkibi qofiya bo‘lib kelgan . Lekin bu uch qofiyadagi so‘zlarning har biri alohida- alohida ma’noga ega . Lekin eski o‘zbek alifbosida bu tajnis tarkibi bir xil yozilgan .1-misrada "bu tun " so‘zi kechasi degan ma’noni anglatib kelgan . Natijada satrdan : "Dunyo menga hijron azobini chektirdi kechasi bilan" degan ma’noni uqamiz.2 - misrada "bag‘rimning bir zarralik ham butun joyi qolmadi". 3- misrada " bizni behol qilding tunga borib " degan fikr ifodalangan. 4- misrada shoir endi "bu va tun" so‘zlarini o‘z ma’nosida ishlatiladi: " Ey xudo bu kechasi yer qanday bo‘ldi " degan ma’no anglashadi. Tuyuq turkiy janr bo‘lgani uchun uning aksar namunalaridan qofiyaga olingan tajnislar, asosan , turkiy so‘z va qo‘shimchalar vositada shakllantiriladi. Bu tuyuqda shoir aynan kelib turkiycha bo‘lgan so‘zlar vositasida tajnis yaratadi. Navoiy tuyuq yaratishda tajnis usullarining barcha xillari ishga soldi , tarkibli so‘zlarni ham turli ma’nolarni qo‘llay oladi.

Alisher Navoiy adabiyotimiz tarixida tuyuqning nazariy asoschisi bo‘lib qolmay, bu janrda ham o‘z iste’dodini sinab ko‘rgan va o‘z devonidan bu janrdagi she’rlarga alohida o‘rin ajratgan qalam sohibidir. Shoirning tuyuqlari turkiy she’riyatning yuksak namunalari ekanligi bilan ahamiyatlidir. Shoir qofiya uchun tajnisning turli ko‘rinishlardan foydalangan ekan, shu vositalarni quruq so‘z o‘yini uchun emas , balki o‘zining chuqur kechinmalari ifoda etish maqsadida bo‘ysundiradi.

" Ul pari y ishqida bu devonani ,
Eyki istarsan , kelib gulxanda ko‘r
Bir qadah ul gulni xandon ayladi
Ey ko‘ngul ,nazzora qil, gulxanda ko‘r "(4 :731)

Bu tuyuqda esa oshiqning holati haqida so‘z yuritiladi. U yorning ishqida , bu devona , uni xohlasang kelib olovda ko‘r , birgina qadah yorni xursand qildi, ey ko‘ngul olov bo‘lib yonayotgan yorga bir nazar tashla". She’rdagi " gulxanda ko‘r ,ya’ni o‘txonoda" so‘zi ikkinchi misrada gul xonada ya’ni gul saqlanadigan joy ma’nosida , to‘rtinchi misrada esa olovda ko‘r ma’nosida qo‘llangan.



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam , yuqorida aytilgan fikrlar va misollar orqali tuyuq janrida so‘zlarni tajnis sifatida qo‘llash so‘z o‘ynoqiligini, turkiy janr bo‘lib , o‘zbek tilining rivojiga katta hissa qo‘shgan Alisher Navoiy tuyuq janri orqali isbotlab berganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tom. 16 tom. Toshkent. Fan 2000 yil
2. Alibek Rustamov . Navoiyning badiiy mahorati. T.; 1979
3. Alisher Navoiy . Xazoyin ul -maoniy 3 tom , 1960.
5. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. 1-2 jildlar mas’ul muharrir Sh. Sirojiddov. T.; Sharq , 2016
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 1-4 tomlari . T.; 2006 yil.